

DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TA'LIMIY O'YINLARNING O'RNI

Boychayeva Sharifa Saidkulovna

*Sirdaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi
katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars o'tish jarayonida didaktik o'yinlarning ahamiyati, foydalanish yo'llari va didaktik o'yinlardan namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: didaktik o'yinlar, boshlang'ich sinf, maktab, xotira, aqliy faoliyat, bilim.

Boshlang'ich ta'limda didaktik o'yinlarga axborotlarni tashuvchi manba sifatida qaraladi. Dars jarayonida didaktik o'yinlarni tashkil etish o'quvchilar o'rtasida muloqot qilish, diqqatni jamlash va o'z navbatida hozirjavoblik kabi xislatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'yindan nuintazam ravishda foydalanish ta'limda tabiiy shaioitni, bu esa o'quvchilarning dars davomida erkin faoliyat olib borishlariga imkonivat yaratadi. O'yindan samarali va olib borilayotgan darsning mazmuniga mos holda foydalanish o'quvchiga dars davomida berilayotgan manbalarni muslaqil o'zlashtirishiga, ijodiy tafakkurini o'stirishga, ularning yashirin imkoniyatlari va fanga bo'lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi.

O'yin kichik maktab yoshidagi o'quvchilar faoliyatida asosiy o'rinni egallaydi. O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, o'yin dunyoni va o'zligini anglashda, qiziqishlarini qondirishda asosiy vosita hisoblanadi. Ta'limiy o'yinlar bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yengillatish va o'yin orqali bilim berish maqsadida yaratilgan.

«Ta'limiy o'yinlar o'quvchilarni ijodiy faoliyat ko'rsatishga, o'rganilayotgan til hodisalarining mohiyatini anglab, mustaqil ravishda hukm va xulosalar chiqarishga, har bir o'quvchiga o'zligini namoyish etish va mulohazalarini erkin bayon etib, o'z nuqtai nazarini himoya qilishga keng imkoniyat yaratadi. Tezkorlik, sezgirlik, topqirlik, qat'iylik, o'quv qiyinchiliklarini mustaqil yengish kabi fazilatlarini tarkib toptirish, ko'pincha, ta'limiy o'yinlar orqali amalga oshiriladi»

O'yinlar o'quv samaradorligini oshirishning asosiy va qulay usullaridan biri hisoblanadi. Chunki, maktabga yangi kelgan bolalarga o'yin faoliyati asosiy, yetakchi o'rinlarni egallaydi. Bola 40-45 daqiqalik dars davomida zerikadi, ko'ngli ko'proq o'yinga moyil bo'ladi. Shuning uchun harakatli o'yinlar bolaning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ongli munosabatini tarbiyalaydi.

O‘yinlar ikki xil ahamiyatga egadir: ta’limiy va tarbiyaviy.

Ta’limiy ahamiyati shundan iboratki, bolalarda o‘qituvchi tomonidan bilim, ko‘nikma, malakalar o‘yin orqali o‘zlashtiriladi va o‘yinda bolalarga berilayotgan bilim, ko‘nikma, malakalar orqali ularda axloqiy, hamkorlik, mustaqillik, o‘ziga ishonch sifatleri shakllanadi. Bu esa muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda ijodkor, tajribali o‘qituvchilar o‘quv va bilish faoliyati takomillashtirishda ta’lim jarayonini didaktik o‘yinlar bilan uyg‘unlashtirib samarali natijalarga erishmoqdalar. Mashg‘ulotlar jarayonida qo‘llaniladigan didaktik o‘yinlar aslida mavzularni o‘zlashtirish jarayonini yengillashtirish va o‘quv orqali samarali bilim berish maqsadida yuritilgan bo‘lib, o‘quvchi faolligini oshirishda o‘ziga xos o‘ringa egadir.

“So‘z tuzish“ o‘yini. O‘yin savod o‘rgatish davrida o‘tkaziladi. Bu o‘yinlarni bajarish o‘quvchilarga tovushning so‘z hosil qilishidagi ahamiyatini to‘laroq tushunib olish imkonini beradi. O‘quvchilar ushbu o‘yinda ishtirok etar ekan, so‘zlarning turli-tuman usullar bilan hosil bo‘lishi katta qiziqish uyg‘otadi. O‘zlari hosil qilgan yangi so‘zlardan bevosita zavq olishga muvaffaq bo‘ladi. So‘z tuzish o‘yini savod o‘rgatishning tarkib –tahrir (analitik –sintetik) tovush metodi asosida bajariladi. Ushbu metodning ikkinchi qismi tuzish ,qurish ,birlashtirish singari ma`nolarni bildiradi. So‘z tuzish o‘yini ham aynan so‘zga hilma-hil tovushlarni, bo‘g‘inlarni qo‘shish orqali hosil bo‘ladi. Bu o‘yinni bajarishda so‘zga turli hil usullar bilan tovush qo‘shib yangi so‘z hosil qiladi.

O‘zidan so‘z tuz (so‘zdan so‘z tuz) o‘yini.

Bu o‘yin ham palindrom kabi so‘zni ikki tomondan o‘qib so‘z hosil qilinadi. Ammo bu o‘yinda o‘ngdan va chandan o‘qiganda so‘zning bir xil ma`no anglatishi shart emas. Aksincha so‘zni chapdan o‘ngga o‘qiganda bir ma`no, o‘ngdan chapga o‘qiganda boshqa lug‘aviy ma`no anglatuvchi so‘z hosil bo‘ladi. Ushbu o‘yin bolalarning kuzatuvchanligini oshiradi. So‘zning luga`viy ma`nosini anglab olishga ijobiy ta`sir etadi. O‘quvchini sergak bo‘lishga odatlantiradi. Bunday so‘zlar o‘zbek tilida anchagina mavjud. Shu tufayli bunday o‘yinni ikki o‘quvchi bilan, guruh-guruh bo‘lib ham, kichik guruhlarga topshiriq berib o‘tkazish ham mumkin. Bunda ham so‘zlardagi harflar soni hisobga olinadi. Qaysi guruh o‘zi ishlatgan so‘zda ko‘p harf qatnashgan bo‘lsa o‘sha g‘olib bo‘ladi.

I guruh

1. sut-tus-3
2. qo‘y-yo‘q-3
3. amin-nima-4
4. kalit-tilak -5
5. damas-Samad-5
6. orzu –uzro- 4

II guruh

- mol-lom-3
- Kon-nok -3
- qori-iroq -4
- Bobur-rubob-5
- Qora-aroq-4
- Sanam-manas-5


III guruh

- g‘oz-zog‘-3
- ota-ato-3
- lekin-nikel-5
- alak-kala-4
- zamon-nomaz5
- Akram-marka-

Didaktik o'yinlar bolalar faoliyatini rivojlantiribgina qolmay, ularning fikrlarini bir joyda to'plab, tez va aniq bayon etishga, mashg'ulotlar jarayonida o'zaro hamjihatlikda faol harakat qilishga undaydi. O'quvchilarda bilim olishga, tengqurlaridan ortda qolmaslik hissi kuchayadi.

Matematikadan beriladigan mantiqiy o'yin va topshiriqlar ularni fanga abo'lgan qiziqishlarini oshirishga undaydi.

Misol uchun matematikadan quyidagi mantiqiy topshiriq berilsin:



Bu topshiriqlar ham o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga sabab bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar og'zaki hisoblash bilimini shakllantirish hozirgi zamon o'qitish metodikasida yangi texnologiyani joriy etishni asosiy masala qilib qo'yimoqda. Darsliklarimizda, ayniqsa, o'n ichida, yuz ichida, ming ichida arifmetik amallar bajarish jarayoni o'quvchilarni fikrlash qobiliyatlarini o'stiradigan, ijodiy qobiliyatini aniqlaydigan holatdir.

Demak o'quvchini o'yindan mahrum etish unga og'ir jazo sifatida salbiy ta'sir etib yomon oqibatlariga sabab bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra, bugungi kunda kichik maktab yoshidagi bolalarga turli o'yinlar, o'yinchoqlar orqali ta'lim-tarbiya berib ularni maktabda ta'lim olishga tayyorlab borilmoqda. Tabiat qo'ynida o'tkaziladigan harakatli o'yinlar bolalarning tevarak-atrof hamda o'simliklar nomlari bilan yaqindan tanishish imkoniyatini beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, bola havotida o'yinlar uni shaxs sifatida tarbiya topishiga katta imkon yaratadi. O'yin orqali o'z "Menini tanishi, o'z haq huquqlarini bilishi, balki kerak bo'lsa, jamoa ichida o'zini tuta bilish ko'nikma va malakasini rivojlanishi mumkin.

Foydalangan adabiyotlar

1. Usmonova D.S. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'yinlardan foydalanishning ahamiyati. Mahoratli pedagog jurnali. 2022-yil, 1-son.
2. M.E.Jumayev, N.T.Axmedova Boshlang'ich sinklar uchun matematikadan didaktik materiallar.O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma.T.2016